

TERMIZDA PROKUROR TADBIRKORLAR BILAN UCHRASHDI



TERMIZDA PROKUROR TADBIRKORLAR BILAN UCHRASHDI

Bugun Termiz shahrida joylashgan matbuot uyida Surxondaryo viloyati prokurorining o'rinbosari Xolmatjon Qulliev viloyatdagi tadbirkorlar bilan uchrashdi.

Tashkil etilgan uchrashuvda tadbirkorlarning muammolari o'rganilib, ularga amaliy yordam ko'rsatish maqsadida qator mutasaddi tashkilot rahbarlariga topshiriqlar belgilab berildi.

Tadbirkorlar tomonidan murojatlarning aksariyati banklar tomonidan ajratiladigan kredit mablag'lari bilan bog'liq bo'lib, shu yerning o'zida muammolar ijobiy hal etildi. Uchrashuvdan so'ng, viloyat prokurori o'rinbosari, Termiz shahar hokimi, Termiz shahar prokurori hamda tegishli tashkilot rahbarlari ishtirokida tadbirkorlar tomonidan yangidan barpo etilayotgan korxonalar va fabrikalar ish jarayoni, ularning ayni vaziyatdagi muammolari joyiga chiqqan holda o'rganilib, yechimi yuzasidan mutasaddilarga tegishli ko'rsatmalar berildi.

